



VOYAGA YETMAGANLAR O`G`RILIK JINOYATINING KELIB CHIQUISH OMILLARI VA ULARGA QARSHI PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR

Mo`minjonov Muhammadrashod Sherzodbek o`g`li

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`g`rilik jinoyati tushunchasi va ko`p hollarda qanday toifadagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgani, ayniqsa voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan o`g`rilik jinoyati va boshqa turdagi huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillar va ma`sul shaxslar tomonidan yo`l qo`yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari haqida ma`lumot berilgan. Bundan tashqari respublikamizda va jahondagi jinoyatchilik haqida ham statistik ma`lumotlar berib o`tilgan.

Annotation: In this article, the concept of the crime of theft and in many cases what category of persons it is committed by, especially the crime of theft committed by minors and the factors that cause other types of offenses and what is allowed by the responsible persons. Information about shortcomings and ways to eliminate them is given. In addition, statistical information about crime in our republic and in the world is also given.

Keys words: O`g`rilik tushunchasi, voyaga yetmagan, jinoyat, ayollar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, bola, ota-ona, ma`sul shaxslar.

Shiddat bilan globallashib borayotgan ayni davrda, shaxslarning dunyoqarashi ham shunga monant tarzda yuksalib bormoqda. Jinoyat olami va unda faoliyat yuritayotgan kimsalarning intellektual salohiyatida ham ushbu globallashuv bilan birga rang-barang tarzda rivojlanish jarayoni davom etmoqda. Xususan, ushbu toifa shaxslardan bo`lgan "Sahiy insonlar" (o`g`rilar) tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va keltirib chiqarayotgan salbiy holatlar hali hanuzgacha soni ortsa ortib bormoqdaki, kamaygani yo`q.

Shaxslarga moddiy zarar ko`rishi va ularning ko`rgan zararlarni qoplash jaroyoni murakkab bo`lgan, aksariyat hollarda zararni qaytarmaslik holatlari ham ko`p uchraydigan salbiy holat bevosita o`g`rilik jinoyatini sodir etilishi bilan bog`liqdir. Ushbu jinoyat davlatning iqtisodiyot sohasiga zarar yetkazishi bilan harakterlanadi. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 3-bo`limidan joy olgan. Ushbu jinoyatga O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasida quyidagicha ta`rif berilgan:



O`g`rilik-o`zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishdir.¹

Demak, yuqoridagi ta`rifdan ham ko`rinadiki, jinoyatchi tomonidan o`zganing mulkini unga bildirmagan holda bevosita olishida ifodalanadigan xatti-harakat.

Ushbu jinoyatni sodir etayotgan shaxslar toifasi ham turlichadir. Ushbu toifalarga quyidagilarni misol qilsak bo`ladi:

- Ilgari sudlangan yoki ushbu qilmishni qilib yurgan turli toifadagi shaxslar
- Turli xildagi shaxslardan iborat guruhlar yoki uyushgan guruh tomonidan
- Ayollar tomonidan
- Voyaga yetmaganlar va boshqalar
- Turli moddiy yetishmovchilik sababli kun ko`rayotgan qiyin ahvoldagi oila vakillari.

O`g`rilik jinoyatining subyektiga yosh chegarasi 14 yosh aqli raso jismoniy shaxs qilib belgilab qo`yilgan².

14 yoshga to`lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo`lsa, ushbu qilmishni amalga oshirgan voyaga yetmagan shaxsning qilmishi o`g`rilik jinoyati subyekt sifatida baholanmaydi va javobgarlikdan ozod etilishiga sabab bo`ladi. Chunki, mantiqiy o`ylaydigan bo`lsak ham ushbu yoshdagi bola hali o`z qilmishlarini haqiqatdan ham oqibatini tushunib yetmagan bo`ladi.

Voyaga yetmaganlarning xatti-harakatlarini bevosita ota-onalari yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar nazorat qilib boradi. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 47-moddasiga asosan ota-onalar yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta`lim berish borasidagi majburiyatlari belgilab qo`yilgan. Agar bunday majburiyatni lozim darajada yoki umuman bajarmasalar sud tomonidan, bolaning kelajaki yaxshi bo`lishi uchun ota-onaga nisbatan ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilishgacha bo`lgan chorani ko`rishi mumkin.


Ayni vaqtda o`g`rilik jinoyatini yoki boshqa turdagi g`ayriijtimoiy qilmishlarga jalb qilish katta yoshdagilar tomonidan amalga oshiralayotganini guvohi bo`lamiz. Misol tariqasida ayrim g`araz maqsadli shaxslar tomonidan voyaga yetmagan shaxslardan o`z manfaatlarini yo`lida ularni ishontirib, boshqalarning moddiy boyliklarini qo`lga kiritishmoqda. Bu esa haqiqiy jinoyatchilarning o`z maqsadlari yo`lida javobgarlikdan qutulib qolish maqsadida bolalardan foydalanib kelishlarida ko`zga tashlanadi. Bu esa voyaga yetmagan shaxsning o`zida keyinchalik

¹ <http://www.lex.uz> (O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi).

² <http://akadmvd.uz> (O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).



g`ayrihuquqiy xulq-atvor shakllanib qolishiga sabab bo`lmoqda. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan o`g`rilik jinoyatining viloyatlar kesimida quyidagi statistikasiga e`tibor berishimiz orqali hushyor bo`lishga chorallaydi:



Yuqoridagi statistik ma`lumotlardan ham ko`rinadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni kamaytirishimiz dardkor. Shu maqsadda barchamiz birlaglashib, “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan naqlga amal qilgan holda, kata hayotda muvaffaqiyatli qadam bosishlariga sababchi bo`lmog`imiz lozim. Shuning uchun ot-onalar va jamiyatning boshqa a`zolari tomonidan bolalarni huquqbuzarlik sodir qilishdan saqlanish uchun quyidagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirish tavsiya qilinadi:

- Farzandlarni bolalik davrida ijtimoiy tarmoqlar yoki televidenyada qanday ko`rsatuv yoki filmlarni ko`rayotganiga hamda qanday o`yinlar bilan band ekanligiga e`tibor qaratish;
- Bolalarning do`stlari kim ekanligi haqida ma`lumotga ega bo`lish;
- O`qishdan bo`sh davrlarida vaqtlarini behuda sarf qilmaslik uchun turli xildagi mashg`ulot turlari (fanlar yoki kasb-xunarlar hamda sport va musiqa to`garaklari) dan birini o`rganishga jalb qilish;



- Farzandlar o`zlarini yaxshi tomondan ko`rsatsalar, turli xildagi rag`bantlantirish choralarini amalga oshirish;
- Ota-onalar bolalar bilan munosabatda ularning ishonchiga kirishi natijasida, muammo va kamchilik hamda qiziqishlari haqida bilish va shu yuzasidan o`z maslahatlarini berishi zarur.

Yuqoridagi tavsiyalarni quyidagi faktlar bilan asoslab, uni o`z mulohazalarim bilan yanada quyidagicha yetkazishga harakat qilaman.

Avvalo respublikamiz hududidagi mavjud voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan birgina umumiy jinoyatchilikning quyidagi statistikasi orqali ham bu borada qilishimiz kerak bo`lgan ishlar ko`p ekanligidan dalolat beradi.



Umumiy jinoyatchilikning yanada ortib ketish oldini olish qiyin bo`lsada, farzandlarimizni ma`lum darajada nazoratini kuchaytirishimiz zarur. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida mavjud bo`lgan ma`lumotlardan hayrli maqsad yo`lida foydalanishni o`rgatishimiz kerak. Ushbu fiklarni yanada aniqlashtirish uchun quyidagi ma`lumotlarni keltirib o`taman.

Hozirda jahonda 8 milliard 19 million 875 mingdan ortiq insonlar mavjud bo`lib, shulardan 53% ni, ya`ni 3,196 mlrd. ni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar



tashkil etadi. Bu ko`rsatkichdan ko`rinadiki, ijtimoiy tarmoqni insonlar orasida roli oshib borayotganligini. Bu esa yoshlar orasida ommalashgan bo`lib, ular tomonidan nato`g`ri foydalanish natijasida turli xildagi salbiy g`oyalarni targ`ib qiluvchi o`yinlar va ko`rsatuvlar orqali foydalanayotgan g`arazli kimsalar o`z maqsadlarini amalga oshirishga omil bo`lmoqda. Birgina 2017-yilgi ma`lumotlarga ko`ra, suiqasd qilishga chorlovchi onlayn o`yinlar qamrovidan 900 mingdan ortiq foydalanuvchi ro`yxatdan o`tgan bo`lsa, shundan 600 nafaridan ko`prog`i vatandosh yoshlarimiz tashkil etadi. Bu miqdor bugunki kunga kelib yanada ortgan bo`lsa ortganki, kamaygani yo`q.

Shuning uchun axborot mahsulotlarini yoshga doir tasniflangan holda uzatish zarur. Misol uchun, bolalar yoshiga qarab (0+, 7+, 12+, 16+, 18+) ommaga taqdim qilishi kerak.

Farzandlarimiz kim bilan do`st bo`lgani haqida ma`lumotga ega bo`lsak, ularni nazorat qilishimiz shunchalik osonlashadi. Agarda, uning do`stlari yomon axloqli bolalar bo`lsa ulardan uzoqlashtirish va ilmga hamda na`muna bo`ladigan bolalar bilan faoliya olib borishini ta`minlashimiz zarur. Bunday qilinmasa, ushbu bola kelajakda jinoyatchi yoki yalqov bo`lib qoladi. Ushbu holatga ilk qadamalr quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- Bolaning jahldor bo`lib qolishi;
- Kattalarning gapiga kirmaslik yoki ularga nisbatan hurmatsizlik qilish;
- Boshqalar bilan munosabatda qo`pol bo`lishi yoki ulardan o`zlarini chetga olishi;
- Darslarga va belgilangan vazifalarga masu`liyatsiz bo`lishi yoki ularni bajarmaslik;
- Salbiy illatlarni shakllanishi (uyga kech kelishi, ta`maki va spirtli mahsulotlar iste`mol qilishi va h.k) kabi holatlar.

Yuqoridagi omillarni sezgan zahotimiz ma`sul shaxslar tomonidan qo`limizdan kelgan barcha choralarni ko`rishimiz zarur. Buning uchun farzandlarimizni bo`sh vaqtlarida mazmunli va foydali bo`lgan mashg`ulotlarga jalb qilishimiz zamon talabi bo`lib qolmoqda. Chunki, Yaponiya tajribasida bolalarni qobiliyatlariga ular 3 yoshga to`lgunga qadar aniqlab, yo`naltirishadi. Buning uchun samarali usullaridan biri, bolalar uydagi mavjud narsalarni qay biriga qiziqishi yoki o`yinchoqlarga qiziqishini bilib olish maqsadida o`z xonadonlarini turli xildagi buyum va o`yinchoqlar bilan boyitishadi. Shuningdek, yaponlar o`z uylarini farzandining qiziqishi bilishi uchun ham, bola ma`lum yoshga yetgunga qadar ta`mirlamay turishadi. Chunki, bola turli xildagi rasmlarni yoki tasvirlarni har xil rangdagi



markerlardan foydalanib bo'yashadi. Bu bilan ularni kelajakdagi qaysi sohaga yo'naltirishga asoslardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz farzandlarimizni kelajakda jinoyatchi bo'lib yetishmasligi uchun, yana bir jihatga e'tibor berishimiz zarur. Ushbu holat bolalarni yaxshi amallariga qarab rag'bantlantirish kerak. Misol tariqasida, dam olish kunlarida turli xildagi dam olish yoki ko'ngil ochar joylarga olib borish, kitob yoki turli xildagi foydali manbaalar sovg'a qilish, nimadir qilishga ruxsat so'raydigan holati bo'lsa, uni ma'lum vazifani ado qilib bo'lgandan keyin bajarish va h.k. Agarda ular bilan bunday ishlarni olib bormasak, ularni bunday amallarni qilishga ishtiyoqi kamayishiga olib keladi. Agarda aksi bo'lsa, bolalar biz kutganimizdan ham foydali ishlarni qilishadi va hayratlantirishda davom etaverishadi.

Shunday ekan har biz yosh avlodni tarbiyalashda har bir insonni o'zni beqiyosdir. Xattoki, u yeti yot begona inson bo'lsa ham. Chunki, ertangi kelajakda avlod yangilanib borishi natijasida biz tarbiya qilgan insonlarimiz bizlarga va bizdan keyingi avlodlarga g'amxo'rlik qiladi, qachonki ularga to'g'ri tarbiya va bilim o'rgata olsak. Agarda aksi bo'lsa, hayot bizni o'z manzilimiz va maqsadimizga yetmasdan o'z ummoniga cho'ktirib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- ★ <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
- ★ <http://press-service.uz/uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
- ★ <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi).
- ★ <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
- ★ <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta'lim portali).
- ★ <http://utube.uz/ru> (Utube.uz ta'lim videoportali).
- ★ <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
- ★ <http://www.xs.uz> («Xalq so'zi» gazetasi).